

**GLOBALLASHUV VA SOTSILOGIYA: ZAMONAVIY DUNYODA YANGI  
PARADIGMALAR SHAKLLANISHI**

**Xaydarov Abror**

*Toshkent Davlat transport universiteti*

*Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.n.*

[a.khaydarov1954@mail.ru](mailto:a.khaydarov1954@mail.ru)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada globallashuv tushunchasining mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ta'siri va sotsiologiya fanidagi yangi paradigmlar shakllanishidagi o'rni tahlil etiladi. Global jarayonlarning ijobiy va salbiy tomonlari, turli fan sohalaridagi yondashuvlar, ayniqsa sotsiologik qarashlar doirasida o'rganiladi. Ilmiy maqolada globallashuvning ijtimoiy tartibotga, insoniy munosabatlarga va universal qadriyatlarga ta'siri, shuningdek yangi paradigmlar shakllanishi kabi muammolar muhokama etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *globallashuv, sotsiologiya, yangi paradigma, universallashuv, integratsiya, ijtimoiy muammolar, risk jamiyati, transmilliy jarayonlar.*

**Abstract:** *This article analyzes the essence and content of the concept of globalization, its impact on social life, and its role in the formation of new paradigms in the field of sociology. The positive and negative aspects of global processes, as well as approaches in various scientific disciplines—particularly within sociological perspectives—are examined. The study discusses issues such as the influence of globalization on social order, human relations, and universal values, as well as the formation of new paradigms.*

**Keywords:** *globalization, sociology, new paradigm, universalization, integration, social issues, risk society, transnational processes.*

**Kirish**

Har bir tarixiy davrning mazmun-mohiyatini, rivojlanish qonuniyatlarini anglash uchun, avvalo, ushbu davrga xos asosiy jarayonlar va tushunchalarni aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda “globallashuv” tushunchasi hayotimizning barcha sohalarida — ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarida keng qo'llanilmoqda va ko'plab siyosatchilar, faylasuflar hamda sotsiolog olimlar diqqat markazida turibdi. Insoniyat tarixida ilgari kuzatilmagan darajada tez va chuqur o'zgarishlar yuz berayotgan davrda yashamoqdamiz. Ba'zilar bu davrni “yuksak texnologiyalar zamoni”, boshqalar “tafakkur asri”, yana boshqalar esa “yalpi axborotlashuv davri” deb ta'riflashmoqda. Bunday sharoitda quyidagi savollar dolzarb ahamiyat kasb etadi: Globallashuv nima? Unga sotsiologik yondashuv nima bilan farq qiladi? Globallashuv tushunchasi qanday mazmunga ega?

Globallashuv — dunyo miqyosida yagona global tizimning shakllanishi jarayoni. Bu atama turli fan sohalarida turlicha izohlanadi. Jumladan, M.Maklyuhan 1960 yilda "global qishloq" iborasini ilmiy muomalaga kiritib, yangi kommunikatsiya vositalari orqali dunyo hajmining qisqarishini nazarda tutgan [1]. Globallashuvning dolzarbligi 1990-yillardan boshlangan

bo'lsa-da, 1960–1970 yillardayoq sotsiologlar tomonidan muhokama qilina boshlangan. Masalan, aksariyat olimlar globallashuv atamasi ilk bor amerikalik iqtisodchi T.Levitt tomonidan 1983 yildagi “The Globalization of Markets” maqolasida qo'llanganini ta'kidlaydilar [2, 44-b.]. Globallashuv — bu iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, huquq, mehnat bozori, kommunikatsiyalar va axborot tizimlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. U global mehnat taqsimoti, kapitalning sayyoraviy harakati, iqtisodiy standartlashuv va madaniy yaqinlashuv bilan tavsiflanadi.

So'nggi o'ttiz-qirq yilda globallashuv sotsiologiya fanida alohida tahliliy yo'nalish sifatida shakllandi. Ushbu jarayonning tahlilida global jamiyat nazariyalari, protsessual konsepsiyalar va tarixiy rivojlanish modellari yuzaga keldi. Globallashuv davlatlar chegaralari kesib o'tilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy aloqalar, ommaviy migratsiya, madaniyatlarning yaqinlashuvi, axborot oqimining global erkin harakati kabi omillarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Internet texnologiyalari, telekommunikatsiya vositalari va transmilliy kompaniyalar faoliyati globallashuvning tezlashuviga turtki berdi. Sotsiologiyada globallashuv nafaqat ijtimoiy voqelikning tahlili ob'ekti, balki yangi nazariy yondashuvlarning manbai ham hisoblanadi.

Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. **Ijobiy tomonlari:** ilmiy va texnologik yutuqlarning tez tarqalishi; umuminsoniy til va tushunishning shakllanishi; dunyoqarash va hayot tarzining universallashtirishi. Salbiy tomonlari: milliy madaniyat va qadriyatlarining yo'qolishi; g'arb madaniyatining ustuvorligi; individualizmning o'sishi va jamoaviylikning pasayishi. Masalan, o'zbek jamiyatida yoshlar orasida jamoaviylik qadriyatlarining zaiflashuvi va rang-baranglik o'rniga yagona g'arbcha standartlarga moslashish tendensiyasi kuzatilmoqda. O'zbek jamiyatida globallashuvning ta'siri, ayniqsa yoshlar qatlamida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Milliy qadriyatlarimizdan biri hisoblangan jamoaviylik, ya'ni oila, mahalla, keng jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishga asoslangan dunyoqarash, so'nggi yillarda zaiflashib bormoqda. Buning o'rnini ko'proq individualizm, ya'ni shaxsiy erkinlik va mustaqillikni ustuvor deb biladigan yondashuv egallamoqda.

Yoshlar orasidagi bu tendensiya, avvalo, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, chet el mediiasi hamda internet orqali tarqalayotgan g'arbcha hayot tarzi va g'oyalar ta'sirida yuzaga kelmoqda. Bunday axborot oqimi yoshlarda o'zini ifoda etish, mustaqil qaror qabul qilish, shaxsiy muvaffaqiyatni barcha narsadan ustun qo'yish kabi qarashlarni shakllantirmoqda. Shuningdek, tegishli mafkuraviy targ'ibotning zaifligi, ta'lim va tarbiya tizimlarida milliy o'zlikni anglashga doir faol ishlarning yetarlicha yo'lga qo'yilmagani ham bu jarayonni kuchaytirmoqda. Natijada, yoshlar nafaqat milliy qadriyatlardan uzoqlashmoqda, balki madaniy bixillashuv (unifikatsiya) jarayoniga kirib bormoqda. Bu esa turli madaniy ifoda shakllarining yo'qolishi, rang-baranglikning kamayishi va turli jamiyatlarning yagona — asosan g'arbcha — shablonga moslashishini anglatadi.

Bunday o'zgarishlar ijtimoiy munosabatlarga ham ta'sir o'tkazmoqda. Jumladan, mahalliy an'anaviy institutlar — mahalla, keksa-kattalarga ehtirom, jamoa o'rtasidagi hamjihatlik

singari mexanizmlar soʻnib borayotgani kuzatiladi. Bu oʻzgarishlar uzoq muddatli davrda milliy oʻzlik, madaniy meros va ijtimoiy birlikni saqlab qolish nuqtai nazaridan jiddiy tahliliy yondashuvni talab qiladi.

Globalashuv nafaqat yaqinlashuv, balki murakkab muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. E.Giddens taʼkidlaganidek: “Globalashuv — bu hammani «yagona dunyo» fuqarolariga aylantirish jarayonidir. Biz boshqalar hayotiga qanday taʼsir qilsak, ular ham bizga shunday taʼsir qiladilar” [3]. Jumladan, ekologik muammolar (iqlim oʻzgarishi, ozon qatlaminin buzilishi), demografik bosim, pandemiyalar, oziq-ovqat xavfsizligi, migratsiya va resurslar tanqisligi global miqyosda hal etilishi zarur boʻlgan masalalardir. U.Bek tomonidan ishlab chiqilgan “risk jamiyati” konsepsiyasiga koʻra, globalashuv nafaqat imkoniyat, balki xavflar manbai hamdir [4]. Shu tariqa sotsiologiyada yangi paradigmalarni shakllanmoqda. “Paradigma” tushunchasi ilmiy muomalaga amerikalik faylasuf Tomas Kun tomonidan kiritilgan boʻlib, u “Ilmiy inqiloblar tuzilishi” (1962) asarida paradigmani ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilingan va muayyan davr uchun xos boʻlgan nazariy model sifatida talqin qilgan [5, 21-b.]. Sotsiologiyada asosiy paradigmalarni quyidagilar hisoblanadi:

- Pozitivistik paradigma — ijtimoiy hayotni tabiiy jarayon sifatida tahlil etadi;
- Psixoanalitik paradigma — ongsiz jarayonlar va shaxsiy motivlar orqali tushuntiradi;
- Funktsional paradigma — jamiyatni yaxlit tizim sifatida koʻradi.

Globalashuvning ijtimoiy tartibotga taʼsiri, transmilliy jamiyatlar va virtual hamjamiyatlar shakllanishi bu paradigmalarning yangilanishi va transformatsiyasini taqozo qilmoqda. Masalan, “mobillik sotsiologiyasi” kabi yangi konsepsiyalar paydo boʻlmoqda. Globalashuv — bu bir vaqtning oʻzida ham integratsiya, ham differentsiatsiya jarayoni. U ijtimoiy tartibotning yangi shakllarini, universal qadriyatlarni va bir vaqtda xavf va muammolarni ham keltirib chiqaradi. Sotsiologiya, bilim tizimi sifatida, ushbu oʻzgarishlarga munosabat bildirishi, ularni tahlil qilishi va yangi yondashuvlarni taklif qilishi zarur. Shu bois, globalashuv va sotsiologiyaning oʻzaro bogʻliqligi mustahkam boʻlib bormoqda va bu aloqalar sotsiologiyada yangi paradigmalarning shakllanishiga zamin yaratadi.

## Adabiyotlar roʻyxati

1. Maklyuen M. Galaktika Gutenberga: Stanovlenie cheloveka pechatayushogo. — M.: Progress, 2005. — 367 s.
2. Levitt T. The Globalization of Markets // Harvard Business Review. — 1983. — Vol. 61(3). — P. 92–102.
3. Giddens E. Uskolzayushiy mir: kak globalizatsiya menyaet nashu jizn. — M.: Ves mir, 2004.-120 s.
4. Bek U. Obshchestvo riska. Na puti k drugomu modernu. M.: Progress- Traditsiya, 2000.
5. Xaydarov A., Toshkulov X. Globalashuv sotsiologiyasi. Toshkent: Vneshinvestprom, 2023. — 224 b.

6. Urri Dj. Sotsiologiya za predelami obshchestv: vidy mobilnosti dlya XXI stoletiya. M.: Izdatelskiy dom NIU VShE, 2012. – 338 s.
7. Suyunov D. X. Corporate governance mechanism: problems and solutions. Monograph // T.: Academia. – 2007. - T. 200.
8. Suyunov, D., and Elmurod Abdusattorovich Khoshimov. "Methodological aspects of assessing the effectiveness of corporate governance in joint-stock companies. Scientific electronic journal" Economics and innovation technologies " 2 (2018).
9. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – S. 2321-6247.
10. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – S. 2321-6247.